CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2025.27.12.Ped.04.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

BEKBERGANOVA NAZOKAT OYBEK QIZI

O‘QUVCHILARDA KOMMUNIKATIV NUTQNI MEDIATEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘qish savodxonligi fani misolida)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Chirchiq – 2026

UO‘K: 373.3.091.3:81:808.5

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Bekberganova Nazokat Oybek qizi
O‘quvchilarda kommunikativ nutqni mediatexnologiyalar vositasida rivojlantirish metodikasi …….....……..3

Бекберганова Назокат Ойбек кизи
Методика развития коммуникативной речи учащихся с помощью медиатехнологий 25

Bekberganova Nazokat Oybek kizi
Methods of developing the communicative speech of students using media technologies . . . . . …….....51

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 55

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.01/2025.27.12.Ped.04.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

BEKBERGANOVA NAZOKAT OYBEK QIZI

O‘QUVCHILARDA KOMMUNIKATIV NUTQNI MEDIATEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(o‘qish savodxonligi fani misolida)**

**PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Ped7800 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasi (www.cspu.uz.) manzilga va «ZiyoNET» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Sabirova Charos Atamamatovna** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Davlatova Adiba Raxmatovna** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Xodjaniyazov Sardor Umarovich pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Buxoro davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2025.27.12.Ped.04.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “___” _____ kuni soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy). Tel.: (99871) 716-68-11; faks: (99871) 716-68-11; e-mail: chdpu_kengash@umail.uz

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel.: (99871) 716-68-11; faks: (99871) 716-68-11

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil **“____”** _____ kuni tarqatildi.

(2026-yil “____” _____dagi_____raqamli reestr bayonnomasi)

U.N.Xodjamqulov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, p.f.d.(DSc), professor.

F.T.Rajapov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash kotibi, p.f.d.(DSc), dotsent

R.A.Eshchanov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, b.f.d.(DSc), professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda raqamli ta’lim muhitining kengayishi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi o‘quvchilarning kommunikativ nutqini rivojlantirishga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Xalqaro ta’lim amaliyotida mediatexnologiyalar vositasida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, media madaniyatini shakllantirish hamda erkin muloqot ko‘nikmalarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda internet tarmoqlari, multimedia vositalari va ijtimoiy platformalar yoshlarning nutqiy faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa o‘quvchilarda axborotni tahliliy qabul qilish, mustaqil fikr bildirish va media muhitida madaniyatli muloqot olib borish zaruratini kuchaytirmoqda. Zamonaviy ta’lim jarayonida mediatexnologiyalardan samarali foydalanish o‘quvchilarning nutqiy faolligi, ijodiy fikrlashi va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bois, media vositalarining didaktik imkoniyatlarini ta’lim jarayoniga samarali integratsiyalash hamda kommunikativ nutqni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Dunyoda ta’lim tizimini raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi o‘quvchilarning kommunikativ nutqini rivojlantirishga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Xalqaro ta’lim amaliyotida mediatexnologiyalar vositasida o‘quvchilarning nutqiy faolligi, muloqot madaniyati va axborot bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Janubiy Koreyada qabul qilingan “Incheon declaration”da ta’lim sifatini oshirish, raqamli vositalardan samarali foydalanish hamda o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish muhim vazifa sifatida belgilangan. Bugungi kunda internet, multimedia vositalari va ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning nutqiy faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli o‘quvchilarda media muhitida erkin muloqot qilish, axborotni tanqidiy tahlil etish hamda kommunikativ nutqni rivojlantirish zarurati ortmoqda. Ilg‘or pedagogik tajribalar o‘quvchini ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish muhimligini ko‘rsatadi. Bu esa o‘qituvchidan zamonaviy metod va mediatexnologiyalardan samarali foydalanishni talab etadi. Shu bois, kommunikativ nutqni mediatexnologiyalar asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda ta’lim tizimini raqamlashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga keng joriy etish hamda o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Yangi O‘zbekistonni bilimli, intellektual salohiyatli yoshlar barpo etadi”. Mazkur vazifalar ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlar va mediatexnologiyalardan samarali foydalanishni taqozo etadi. Zamonaviy darsning muhim talablaridan biri — o‘quvchilarning erkin fikrlashi, og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, media muhitida samarali muloqot olib borish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Ayniqsa, mediatexnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning kommunikativ faolligini oshirish, axborotni tanqidiy tahlil qilish hamda mustaqil va kreativ fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli o‘quvchilarda kommunikativ nutqni mediatexnologiyalar vositasida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda qabul qilingan 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlar, 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmon hamda 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-son qarorlarda belgilangan ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga oid vazifalarni amalga oshirishda ushbu “O‘quvchilarda kommunikativ nutqni mediatexnologiyalar vositasida rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz olimlaridan N.Q.Murodova, M.Z.Hamdamova, G.M.Axmedova, F.O‘.O‘rinova, T.A.Yusupova, U.Sh.Ro‘zibayeva, H.S.Bakiyeva hamda R.R.Rustamovalar [1] tomonidan o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, kommunikativ kompetensiyani shakllantirish hamda nutqiy faoliyatni takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Shuningdek, F.A.Xamrayeva, M.J.Saidova, N.Sh.Ro‘ziqulovalar tomonidan boshlang‘ich ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, multimedia vositalari va mediatexnologiyalardan foydalanishning pedagogik asoslari tadqiq etilgan. Mazkur tadqiqotlarda o‘quvchilarning kommunikativ nutqini rivojlantirishning ayrim jihatlari yoritilgan bo‘lsa-da, uni mediatexnologiyalar vositasida kompleks rivojlantirish metodikasi yetarli darajada maxsus tadqiq etilmagan.

MDH olimlaridan Y.S.Braun, V.Anatolevna, N.S.Anisimova, N.N.Ogoltsova, I.V.Beltsin, S.A.Arapovalar tomonidan maktab ta’limida multimedia va mediatexnologiyalardan foydalanish, o‘quvchilarning kommunikativ faolligini oshirish, raqamli ta’lim muhitini tashkil etish hamda interaktiv o‘qitish metodlariga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlarda media vositalarining o‘quvchilarning nutqiy faoliyati, axborotni qabul qilish va muloqot kompetensiyasini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari yoritilgan.

[1] Boshlang‘ich ta’limda kommunikativ yondashuv. – T., 2020.

Xorij olimlaridan S.Krum, M.Feyrxoll, D.Rouzlar tomonidan kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar nutqini rivojlantirish, kommunikativ faoliyatni shakllantirish hamda media vositalari asosida ta’lim samaradorligini oshirishga oid ilmiy izlanishlar olib borilgan. O‘rganilgan ilmiy tadqiqot ishlarida o‘quvchilarda kommunikativ nutqni mediatexnologiyalar vositasida rivojlantirish metodikasi to‘liq ochib berilmaganligini inobatga olib, ushbu mavzu tanlandi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Ushbu dissertatsiya Urganch davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, “Urganch davlat universitetini 2017–2030-yillarda rivojlantirish dasturi”ning 2.4-bandi asosida belgilangan “Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va ilmiy salohiyatni oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi” doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘quvchilarda kommunikativ nutqni mediatexnologiyalar vositasida rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

o‘quvchilarda kommunikativ nutqni mediatexnologiyalar vositasida rivojlantirishning ilmiy-nazariy va pedagogik asoslarini tahlil qilish;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ nutqini rivojlantirishda mediatexnologiyalarning didaktik imkoniyatlarini aniqlash;

o‘quvchilarda kommunikativ nutqni mediatexnologiyalar vositasida rivojlantirishning pedagogik modeli va samarali metodlarini takomillashtirish;

o‘quvchilarda kommunikativ nutqni mediatexnologiyalar vositasida rivojlantirish darajasini baholash mezonlari, ko‘rsatkichlari va darajalari asosida ilmiy-metodik tavsiya hamda takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti o‘quvchilarda kommunikativ nutqni mediatexnologiyalar vositasida rivojlantirish jarayoni bo‘lib, pedagogik tajriba-sinov ishlari Xorazm viloyatining Urganch shahri va Urganch tumanidagi, Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumanidagi, Sirdaryo viloyatining Guliston shahridagi umumta’lim maktablaridan 342 nafar o‘quvchi jalb qilingan.

Tadqiqot predmeti o‘quvchilarda kommunikativ nutqni mediatexnologiyalar vositasida rivojlantirishning mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari dissertatsiyada qiyosiy tahlil, pedagogik-sotsiologik (kuzatish, suhbat, anketa, so‘rovnoma), pedagogik tajriba-sinov, matematik statistik tahlil kabi tadqiqot va tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘quvchilarda kommunikativ nutqni mediatexnologiyalar vositasida rivojlantirishning ilmiy-nazariy va pedagogik asoslari zamonaviy pedagogik yondashuvlar, kommunikativ ta’lim tamoyillari hamda media ta’lim konsepsiyalari asosida tizimlashtirilib, ushbu jarayonning mazmuni, tarkibiy komponentlari va metodik xususiyatlari aniqlashtirish orqali takomillashtirilgan;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ nutqini rivojlantirishda mediatexnologiyalarning didaktik imkoniyatlari multimedia vositalari, interaktiv topshiriqlar va raqamli ta’lim resurslarining o‘quvchilarning nutqiy faolligi, mustaqil

fikrlashi hamda kommunikativ kompetensiyasiga ta’siri asosida aniqlashtirilib, ularning pedagogik samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan;

o‘quvchilarda kommunikativ nutqni mediatexnologiyalar vositasida rivojlantirishning pedagogik modeli hamda samarali metodlari interfaol yondashuv, media vositalar, kommunikativ faoliyat va o‘quvchilarning yosh xususiyatlari integratsiyasi asosida ishlab chiqilib, ta’lim jarayonida qo‘llash mexanizmlari orqali takomillashtirilgan;

o‘quvchilarda kommunikativ nutqni mediatexnologiyalar vositasida rivojlantirish darajasini baholash mezonlari, ko‘rsatkichlari va darajalari kommunikativ-faoliyatli yondashuv asosida ishlab chiqilib, ular negizida metodik tavsiyalar hamda amaliy takliflarni ta’lim jarayoniga joriy etishning samarali usullari takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o‘quvchilarda kommunikativ nutqni mediatexnologiyalar vositasida rivojlantirishning pedagogik va metodik asoslari aniqlashtirilib, boshlang‘ich ta’lim jarayonida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali media vositalar hamda interfaol metodlardan foydalanish mexanizmlari ishlab chiqildi;

o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mediatexnologiyalar asosidagi metodik tizim, didaktik materiallar, media topshiriqlar va metodik tavsiyalar majmuasi yaratililib, ularning samaradorligi tajriba-sinov ishlari orqali asoslandi;

“Ona tili” va “O‘qish savodxonligi” fanlari mazmuniga integratsiyalashgan media topshiriqlar tizimi ishlab chiqilib, u o‘quvchilarning nutqiy faolligi, mustaqil fikrlashi, axborotni tahlil qilish ko‘nikmasi hamda muloqot madaniyatini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirdi;

tadqiqot natijalari umumta’lim maktablarida dars jarayonlarini zamonaviy tashkil etish, kommunikativ nutqni rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv-metodik majmualarni takomillashtirish hamda pedagoglar uchun metodik tavsiyalar va maxsus kurslar mazmunini boyitishda amaliy manba sifatida foydalanishga tavsiya etildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammo yuzasidan olib borilgan ilmiy-nazariy tahlillar, pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari, tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan zamonaviy pedagogik yondashuv va metodlarning maqsadga muvofiqligi, olingan natijalarning matematik-statistik metodlar asosida qayta ishlangani hamda xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani bilan asoslanadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingani, OAK ro‘yxatidagi ilmiy jurnallar hamda xorijiy nashrlarda chop etilgani ularning ishonchliligini ta’minlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘quvchilarda kommunikativ nutqni mediatexnologiyalar vositasida rivojlantirishning pedagogik va metodik asoslari nazariy jihatdan aniqlashtirilgani, kommunikativ faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi kognitiv, refleksiv hamda interaktiv komponentlarning mazmuni ochib

berilgani, shuningdek, mediatexnologiyalar asosida kommunikativ nutqni rivojlantirishning yaxlit metodik tizimi ishlab chiqilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar, media topshiriqlar va didaktik materiallardan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Ona tili” va “O‘qish savodxonligi” fanlarini o‘qitish jarayonini takomillashtirishda, o‘quvchilarning nutqiy faolligini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv-metodik majmualarni yaratishda, pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning kasbiy kompetentligini oshirishga yo‘naltirilgan kurslar mazmunini boyitishda hamda ta’lim platformalari va media vositalari orqali kommunikativ nutqni rivojlantirishga oid metodik materiallarni amaliyotga joriy etishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘quvchilarda kommunikativ nutqni mediatexnologiyalar vositasida rivojlantirish metodikasiga oid tadqiqotning ilmiy natijalari asosida:

o‘quvchilarda kommunikativ nutqni mediatexnologiyalar vositasida rivojlantirishning ilmiy-nazariy va pedagogik asoslarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar, kommunikativ ta’lim tamoyillari hamda media ta’lim konsepsiyalari asosida tizimlashtirishga doir tadqiqot natijalaridan “Ona tili-o‘qish savodxonligi va uni o‘qitish metodikasi” nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 16-yanvardagi № 5984-2669-6a56-417a-2194-0578-3474 raqamli ma’lumotnomasi). Natijada, kommunikativ nutqni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini ta’lim jarayoniga integratsiyalash imkoniyatlari kengaytirilgan;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ nutqini rivojlantirishda mediatexnologiyalarning didaktik imkoniyatlarini multimedia vositalari, interaktiv topshiriqlar va raqamli ta’lim resurslari asosida aniqlashtirishga oid tadqiqot natijalaridan O‘ZMTRK “O‘zbekiston” teleradiokanalida efirga uzatilgan “Bedorlik”, “Ijod zavqi”, “Ta’lim va taraqqiyot”, “Millat va madaniyat” nomli teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar ssenariylarini tayyorlash jarayonida foydalanilgan(O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 12-sentabrdagi 26-36-1035-son ma’lumotnomasi). Natijada, kommunikativ nutqni rivojlantirishga xizmat qiluvchi media vositalarning amaliy samaradorligini oshirishga erishilgan;

o‘quvchilarda kommunikativ nutqni mediatexnologiyalar vositasida rivojlantirishning pedagogik modeli hamda samarali metodlarini interfaol yondashuv, media vositalar va kommunikativ faoliyat integratsiyasi asosida takomillashtirishga doir tadqiqot natijalaridan F3-2019081773-raqamli “Musiqa va san’at o‘quv muassasalari uchun “Bolalar raqslari” fanidan interaktiv o‘quv-metodik qo‘llanmalar yaratish” mavzusidagi fundamental loyiha doirasida foydalanilgan(O‘zbekiston Davlat xoriagrafiya akademiyasining 2025-yil 9-sentabrdagi 1/04-241-son ma’lumotnomasi). Natijada, kommunikativ faoliyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik ta’minotning pedagogik samaradorligini oshirishga erishilgan;

o‘quvchilarda kommunikativ nutqni mediatexnologiyalar vositasida rivojlantirish darajasini baholash mezonlari, ko‘rsatkichlari va darajalarini kommunikativ-faoliyatli yondashuv asosida ishlab chiqish hamda ular negizida

metodik tavsiyalarni amaliyotga joriy etishga oid tadqiqot natijalaridan “Ona tili-o‘qish savodxonligi va uni o‘qitish metodikasi” nomli darslik mazmunini boyitishda foydalanilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 16-yanvardagi №5984-2669-6a56-417a-2194-0578-3474 raqamli ma’lumotno-masi). Natijada, o‘quvchilarning kommunikativ nutqini baholash va rivojlantirishga oid metodik ta’minotning samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta, shu jumladan, 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 9 ta ilmiy ish nashr etilgan bo‘lib, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 3 ta maqola, xorijiy ilmiy jurnalda 1 ta maqola, xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda 1 ta tezis, respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida 4 ta tezis, 1 ta darslik chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, ishning umumiy hajmi 152 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti, predmeti va usullari tasniflangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi va aprobatsiyasi nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“O‘quvchilarning kommunikativ nutqini mediatexnologiyalar vositasida rivojlantirish metodikasining nazariy asoslari”** deb nomlangan bo‘lib, unda o‘quvchilarda kommunikativ nutqni rivojlantirishning ilmiy-nazariy hamda pedagogik asoslari zamonaviy ta’lim yondashuvlari asosida tahlil qilingan. Bobda kommunikatsiya tushunchasi insonning ijtimoiy munosabat jarayonida axborot almashishi, fikr ifodalashi va muloqotga kirishish faoliyati sifatida izohlangan. Kommunikativ nutq o‘quvchining o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda ravon, mantiqiy hamda ta’sirchan ifoda etish ko‘nikmalarining majmui sifatida yoritilgan. Shu nuqtai nazardan, kommunikativ nutqni rivojlantirish o‘quvchilarning erkin fikrlashi, muloqotga kirishishi, tinglash va fikr almashish madaniyatini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi.

Shuningdek, mediatexnologiyalar ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan audio, video, multimedia, interfaol platformalar va raqamli vositalar tizimi sifatida tavsiflanib, ularda o‘quvchilarning nutqiy faolligi, mustaqil fikrlashi hamda kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan. Mazkur vositalarning didaktik xususiyatlari, funksional imkoniyatlari va

ta’lim jarayonidagi samaradorligini aniqlash maqsadida raqamli o‘quv vositalarining qiyosiy tahlili amalga oshirilgan.

1-jadval

Kommunikativ nutqni rivojlantirishga yo‘naltirilgan raqamli o‘quv vositalarining qiyosiy tavsifi

	Asosiy xususiyatlari	Pedagogik maqsadlar	Afzalliklari	Cheklovlar
Interfaol multimedia materiallar	Animatsiya, simulyatsiya, multimedia hikoyalar	Faol jalb qilish, murakkab tushunchalarni soddalashtirish	Diqqatni uzoq muddat ushlab turish, turli o‘rganish uslublarini qondirish	Texnik ta’minot talab qiladi, haddan tashqari foydalanish zararli
Audiovizual resurslar	Video, audio, multimedia taqdimotlar	Lug‘at boyligi, talaffuz ko‘nikmalari	Ko‘rish va eshitish organlarini birgalikda faollashtirish	Passiv qabul qilish xavfi, texnik jihozlar zarur
Raqamli o‘quv platformalari	Adaptiv tizimlar, gamifikatsiya, real vaqt baholash	Individual yondashuv, o‘rganish jarayonini boshqarish	Shaxsiy ta’lim traektoriyasi, doimiy monitoring	Internet aloqasi kerak, o‘qituvchi tayyorgarligi
Mobil ilovalar va dasturlar	Kommunikativ o‘yinlar, so‘z o‘rganish, hikoya yaratish	Kundalik hayot bilan integratsiya, motivatsiya oshirish	Har qanday joyda foydalanish, qiziqarli bichim	Ekran vaqti cheklovi, ijtimoiy izolyatsiya xavfi

Kommunikativ ta’lim tamoyillari asosida o‘quvchilarning tinglash, tushunish, fikr bildirish va muloqot olib borish ko‘nikmalarini rivojlantirishda mediatexnologiyalarning o‘rni ilmiy manbalar hamda xalqaro tajribalar asosida tahlil qilingan. Jadvalda keltirilgan raqamli o‘quv vositalarining qiyosiy tahlili ularning kommunikativ faoliyatni rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlari turlicha ekanligini ko‘rsatdi. Xususan, interfaol platformalar va multimedia vositalari o‘quvchilarning muloqotga kirishish faolligini oshirishga xizmat qilsa, audio va video resurslar tinglab tushunish, to‘g‘ri talaffuz hamda og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida tavsiflangan. Shu bilan birga, raqamli ta’lim vositalaridan maqsadli va tizimli foydalanish o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, mustaqil fikrlashini faollashtirish hamda media madaniyatini shakllantirishda muhim pedagogik omil ekanligi asoslab berilgan.

Tadqiqotda UNESCO, UNICEF, PISA kabi xalqaro tashkilotlarning ta’limni raqamlashtirish, kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish hamda media ta’limga oid tavsiyalari tahlil qilinib, Finlyandiya, Janubiy Koreya va Singapur kabi ilg‘or ta’lim tizimlari tajribalari o‘rganilgan. Mazkur tajribalarda boshlang‘ich ta’lim jarayonida multimedia vositalari, interfaol platformalar va raqamli resurslardan foydalanish o‘quvchilarning muloqot madaniyati, og‘zaki va yozma nutqi hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omil sifatida baholanishi

yoritilgan. Shu asosda o‘quvchilarda kommunikativ nutqni mediatexnologiyalar vositasida rivojlantirishning mazmuni, tarkibiy komponentlari, pedagogik shart-sharoitlari hamda metodik xususiyatlari aniqlashtirilib, kommunikativ faoliyatni tashkil etishning nazariy asoslari takomillashtirilgan.

Xorijiy tadqiqotchilardan M.Feyrxoll o‘z ilmiy izlanishlarida boshlang‘ich ta’limda multimedia vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning og‘zaki nutq faolligini oshirishini ta’kidlab, audio va vizual materiallarning birgalikdagi ta’siri bolalarda muloqotga kirishish motivatsiyasini kuchaytirishini asoslab bergan. D.Rouz esa raqamli ta’lim muhitida kommunikativ faoliyatni tashkil etish orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, savol berish va fikr bildirish ko‘nikmalari rivojlanishini qayd etgan. Olimning fikricha, “interfaol media vositalari o‘quvchini oddiy tinglovchidan faol muloqot subyektiga aylantiradi”.

MDH olimlaridan S.A.Arapovaning “Multimedia ta’lim makonida maktab o‘quvchilarida tilning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi tadqiqotida multimedia texnologiyalarining o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasiga ta’siri chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotda audio, video va interfaol topshiriqlardan foydalanish o‘quvchilarning kommunikativ faolligini oshirishi ilmiy jihatdan asoslangan. N.N.Ogoltsova esa maktab ta’limida multimedia vositalarining didaktik imkoniyatlarini o‘rganib, mediatexnologiyalar o‘quvchilarning axborotni tez qabul qilishi, uni qayta ishlashi va nutqiy faoliyatda qo‘llashiga ijobiy ta’sir etishini ko‘rsatib bergan.

Mamlakatimiz olimlaridan N.Q.Murodova boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq madaniyatini rivojlantirish masalalarini tadqiq etib, o‘quvchilarning erkin fikrlashi va ravon nutqini shakllantirishda interfaol metodlarning ahamiyatini alohida ta’kidlagan. G.M.Axmedova o‘z tadqiqotlarida ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qilishini asoslab bergan. F.A.Xamrayeva esa boshlang‘ich ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning metodik jihatlarini tadqiq qilib, raqamli vositalarning o‘quvchilarning nutqiy faolligi va mustaqil fikrlashini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlarini yoritgan. Mazkur ilmiy qarashlar o‘quvchilarda kommunikativ nutqni rivojlantirish jarayonida mediatexnologiyalarning nafaqat didaktik, balki psixologik ahamiyatga ham ega ekanligini ko‘rsatadi.

Shu jihatdan o‘quvchilarda kommunikativ nutqni mediatexnologiyalar vositasida rivojlantirishning o‘ziga xos psixologik jihatlari tahlil qilinib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va individual psixologik xususiyatlari, ularning nutqiy faoliyati hamda media vositalar orqali axborotni qabul qilish jarayonlari yoritilgan. Unda boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarda diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur va nutq jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligi kommunikativ faoliyatning muhim psixologik omili sifatida asoslab berilgan.

Mediatexnologiyalarning audio, video, animatsion va interfaol ko‘rinishlari o‘quvchilarning emotsional holati, qiziqishi hamda o‘quv motivatsiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ilmiy jihatdan izohlangan. Ayniqsa, vizual va eshituv orqali qabul qilinadigan axborotlarning uyg‘unligi o‘quvchilarning fikrni tez anglash, qayta

ifodalash hamda erkin muloqotga kirishish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi ko‘rsatib berilgan. Shu bilan birga, L.S.Vigotskiy, J.Piaje va boshqa psixolog olimlarning qarashlari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ nutqning shakllanish bosqichlari hamda mediatexnologiyalarning kognitiv va refleksiv faoliyatga ta’siri tahlil qilingan. O‘quvchilarning kommunikativ nutqini rivojlantirishda media vositalardan foydalanish ularning mustaqil fikrlashi, nutqiy faolligi, ijodiy yondashuvi va ijtimoiy moslashuvini rivojlantiruvchi muhim psixologik omil sifatida tavsiflangan.

Mazkur psixologik va pedagogik omillar o‘quvchilarda kommunikativ nutqni mediatexnologiyalar vositasida rivojlantirish masalasining zamonaviy ta’lim tizimidagi dolzarb muammolardan biri ekanligini ko‘rsatadi. Chunki boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotgan bo‘lsa-da, ushbu jarayonda mediatexnologiyalardan samarali foydalanish metodikasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ta’lim tizimini raqamlashtirishga qaratilgan islohotlarning jadallashuvi bilan o‘qituvchilarning media vositalardan foydalanishga oid metodik tayyorgarligi o‘rtasidagi nomuvofiqlik, o‘quvchilarning axborot-kommunikatsiya muhitidagi faolligi ortib borayotgani bilan ularning kommunikativ nutqini pedagogik jihatdan maqsadli rivojlantirish mexanizmlarining cheklanganligi mazkur muammoning ilmiy-amaliy ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Shuningdek, “Ona tili” va “O‘qish savodxonligi” fanlarida mediatexnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlarining kengayib borayotgani bilan ushbu vositalarning didaktik va metodik imkoniyatlarini kompleks tizim asosida amaliyotga tatbiq etish zarurati o‘rtasida muayyan qarama-qarshiliklar mavjudligi aniqlangan. Tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarda kommunikativ nutqni rivojlantirishga oid ilmiy ishlarda asosan nutq madaniyati, axborot texnologiyalaridan foydalanish yoki multimedia vositalarining umumiy pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Biroq kommunikativ nutqni aynan mediatexnologiyalar vositasida rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari, tarkibiy komponentlari, pedagogik modeli, baholash mezonlari hamda metodik ta’minoti yaxlit tizim sifatida yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu sababli mazkur muammoning nazariy va metodik jihatlarini chuqur o‘rganish hamda unga mualliflik yondashuvi asosida aniqlik kiritish zarurati yuzaga kelgan.

Muallifning ta’rifiga ko‘ra, o‘quvchilarda kommunikativ nutqni mediatexnologiyalar vositasida rivojlantirish — bu audio, video, multimedia va interfaol raqamli vositalar asosida o‘quvchilarning og‘zaki hamda yozma nutqini rivojlantirish, erkin muloqotga kirishish, fikrni mustaqil va mantiqiy ifodalash, axborotni tahlil qilish hamda kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan maqsadli pedagogik jarayondir. Mazkur jarayon o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etilib, kommunikativ faoliyatni faollashtirish, nutqiy faollikni oshirish va media madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mualliflik yondashuvida mediatexnologiyalar o‘quvchilarning nafaqat axborotni qabul qilish vositasi, balki ularning fikrlash, mulohaza yuritish, o‘z fikrini himoya qilish va muloqot olib borish

kompetensiyalarini rivojlantiruvchi pedagogik mexanizm sifatida talqin etiladi. Shu bois kommunikativ nutqni rivojlantirish jarayonida interfaol media vositalari, multimedia topshiriqlari hamda raqamli kommunikativ muhitdan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy va refleksiv faoliyatini rivojlantirishning muhim omili sifatida qaraladi.

Mazkur nazariy qarashlar va ilmiy-metodik yondashuvlar asosida dissertatsiyaning keyingi bobida o‘quvchilarning kommunikativ nutqini mediatexnologiyalar vositasida rivojlantirish metodikasining mazmuni, pedagogik modeli, samarali metodlari hamda amaliy qo‘llash mexanizmlari yoritiladiMazkur nazariy qarashlar tadqiqotning keyingi bosqichida o‘quvchilarning kommunikativ nutqini mediatexnologiyalar vositasida rivojlantirishning metodik asoslarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirdi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O‘quvchilarning kommunikativ nutqini mediatexnologiyalar vositasida rivojlantirish metodikasi”** deb nomlangan bo‘lib, unda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ nutqini rivojlantirishda mediatexnologiyalarning didaktik imkoniyatlari multimedia vositalari, interaktiv topshiriqlar hamda raqamli ta’lim resurslarining o‘quvchilarning nutqiy faolligi, mustaqil fikrlashi va kommunikativ kompetensiyasiga ta’siri asosida aniqlashtirilib, ularning pedagogik samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shu asosda kommunikativ nutqni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik tizimning mazmuni, vositalari hamda amaliy qo‘llash mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Mamlakatimiz ta’lim tizimida interfaol doskalar, multimedia taqdimotlari, video-darslar, elektron platformalar va mobil ilovalardan foydalanishga asoslangan amaliy tajribalar shakllanib borayotgani, bunday yondashuvlar o‘quvchilarning nutqiy faolligi, mustaqil fikrlashi hamda darsga qiziqishini oshirishga xizmat qilayotgani yoritilgan. “Khan Academy O‘zbek” kabi platformalarning o‘zbek tilidagi elektron resurslari o‘quvchilarning kommunikativ faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi samarali vosita sifatida tavsiflangan. Shu bilan birga, texnik imkoniyatlarning hududlar kesimida turlicha ekanligi, pedagoglarning media vositalardan foydalanish bo‘yicha metodik tayyorgarligi yetarli emasligi hamda milliy media kontentlarning kamligi mazkur jarayon samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillar sifatida ko‘rsatib berilgan.

“O‘qish savodxonligi” fanida mediatexnologiyalardan foydalanishda milliy qadriyatlar, o‘zbek tilining fonetik va sintaktik xususiyatlarini hisobga olish zarurligi asoslangan hamda xalqaro tajribalarni milliy ehtiyoj va imkoniyatlar bilan uyg‘unlashtirish orqali kommunikativ nutqni rivojlantirishning samarali metodik tizimini yaratishning pedagogik asoslari ochib berilgan. Shu asosda mediatexnologik materiallarning ilmiy asoslangan tasnifi ishlab chiqilib, ular interfaol multimedia materiallari, audiovizual resurslar, raqamli o‘quv platformalari hamda mobil ilova va dasturlar kabi asosiy kategoriyalarga ajratilgan. Multimedia texnologiyalarining matn, tasvir, audio, video va animatsiyani birlashtiruvchi xususiyati o‘quvchilarning turli sezgi organlariga bir vaqtda ta’sir ko‘rsatishi hamda kommunikativ nutqni rivojlantirishda samarali didaktik vosita bo‘lib xizmat qilishi asoslab berilgan.

Interfaol hikoyalar, dialoglar va multimedia topshiriqlari o‘quvchilarning nutq namunalarini tinglash, takrorlash, tahlil qilish hamda mustaqil qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishi yoritilgan. Audiovizual resurslarning lug‘at boyligini oshirish, to‘g‘ri talaffuz va og‘zaki nutq madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyati, raqamli o‘quv platformalarining esa individual yondashuv, adaptiv o‘rganish hamda gamifikatsiya elementlari orqali o‘quvchilarning kommunikativ faoliyatini rivojlantirishdagi imkoniyatlari ochib berilgan.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ovozli yordamchilardan foydalanish masalasi ham alohida dolzarblik kasb etmoqda. Chunki o‘quvchilarning ona tilida tabiiy muloqot qilish ehtiyoji hamda milliy madaniy qadriyatlarni saqlash zarurati mediatexnologiyalarni mahalliy sharoitga moslashtirishni talab etadi. Xorijiy platformalar asosan ingliz, rus va boshqa keng tarqalgan tillarda faoliyat yuritayotgan bo‘lsa-da, o‘zbek tilida ishlaydigan ovozli yordamchilarning paydo bo‘lishi boshlang‘ich ta’lim jarayonida kommunikativ nutqni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Shu bois quyidagi jadvalda ovozli yordamchi platformalarning til imkoniyatlari hamda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ nutqini rivojlantirishdagi pedagogik ahamiyati qiyosiy tahlil qilingan (2-jadval).

Yuqoridagi jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, har bir ovozli yordamchi platforma o‘zining funksional imkoniyatlari va pedagogik afzalliklariga ega. Google Assistant va Amazon Alexa keng qamrovli xavfsizlik tizimi hamda ko‘p funksiyali imkoniyatlari bilan ajralib tursa, Yandex Alice rus tilidagi kommunikativ muhit uchun qulay vosita sifatida tavsiflangan. Google Gemini esa multimodal imkoniyatlari orqali murakkab ta’limiy vazifalarni bajarish, vizual va matnli axborotlarni integratsiyalash hamda kreativ faoliyatni rivojlantirishda samarali platforma sifatida baholangan.

Muxlisa AI platformasi hozircha beta rejimida faoliyat yuritayotgan bo‘lsa-da, uning o‘zbek tiliga moslashtirilganligi va milliy madaniy qadriyatlarga yo‘naltirilganligi O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun muhim pedagogik ahamiyat kasb etishi asoslangan. Mazkur platformaning o‘quvchilarning ona tilida tabiiy muloqot qilishi, milliy adabiyot va ertaklar asosida kommunikativ faoliyatni rivojlantirishi hamda mahalliy ta’lim dasturlariga moslashgan holda ishlashi boshlang‘ich ta’limda kommunikativ nutqni rivojlantirishning yangi imkoniyatlarini yuzaga keltirishi yoritilgan.

Shu asosda mobil ilova va dasturlarning kommunikativ o‘yinlar, hikoya yaratish, ovozli kitobxonlik hamda interfaol lug‘at ishlari orqali o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirishdagi pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Media vositalarni tanlash va qo‘llashda o‘quvchilarning individual xususiyatlari, qiziqishlari va qabul qilish usullarini hisobga olish zarurligi asoslanib, kommunikativ nutqni rivojlantirishga yo‘naltirilgan interfaol metodlarning psixologik asoslar, pedagogik tamoyillar va zamonaviy texnologik vositalar integratsiyasiga tayangan majmuali metodologiyasi ishlab chiqilgan.

2-jadval

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ nutqini rivojlantirishda ovozli yordamchi platformalarning qiyosiy tavsifi

T/r	Ovozli yordamchi	Asosiy tillar	Kommunikativ rivojlanish imkoniyatlari	Boshlang‘ich sinf afzalliklari
1.	**Google Assistant** Google Inc.  	• Ingliz tili • 30+ til • Rus tili • Ko‘p tilli rejim	• Savol-javob o‘yinlari • Hikoyalar va she’rlar o‘qish • Talaffuz mashqlari • «Tell me a story» funksiyasi • Ijodiy qo‘shiq yaratish	• Bolalar uchun xavfsiz rejim • Ota-onalar nazorati • Vizual javoblar • Bepul va keng tarqalgan
2.	**Amazon Alexa** Amazon  	• Ingliz tili (asosiy)• Nemis, Fransuz• Ispan, Yapon • 8+ til	• 20 Questions o‘yini • Alphabet Game • Interactive Story Time • Spelling Bee mashqlari• Rima o‘yini	• Kids+ maxsus xizmati • Vaqt cheklash • Ta’limiy skilllar katalogi • Faoliyat hisobotlari
3.	**Yandex Alice** Yandex 	• Rus tili (asosiy) • Ingliz tili • Turk tili • Qozoq tili	• Bolalar uchun ertaklar • Matematik o‘yini • Qofiya o‘yini • Shahmatga o‘rgatish • Ijodiy yozuv mashqlari	• Rus tilida kommunikatsiya • Mahalliy madaniy kontekst • Bolalar rejimi • Offline imkoniyatlari
4.	**Google Gemini** Google DeepMind 	• Ingliz tili • 40+ til • Rus tili • Multimodal qo‘llab-quvvatlash	• Rasm tahlili va tasvirlash • Ijodiy hikoya yaratish • Vizual matematik yechish • Kod o‘rgatish • Chuqur tahliliy muloqot	• Multimodal ta’lim • Ilg‘or AI qobiliyatlari • Kreativ loyihalar • Individual traektoriya
5.	**Muxlisa AI BETA** [242] mahalliy ishlab chiquvchilar muxlisa.uz 	• O‘zbek tili (asosiy) • Rus tili • Ingliz tili • Faqat transkripsiya	• O‘zbek tilida savol-javob • Milliy ertaklar • O‘zbek adabiyoti • Milliy o‘yinlar	• Ona tilida muloqot • Milliy madaniy kontekst • Mahalliy ishlab chiqish • Ta’lim dasturiga moslashish • Kelajakda ovozli rejim

Shuningdek, mediatexnologik materiallarning ilmiy asoslangan tasnifi ishlab chiqilib, ular interfaol multimedia materiallari, audiovizual resurslar, raqamli o‘quv platformalari hamda mobil ilova va dasturlar kabi asosiy kategoriyalarga ajratilgan. Mazkur tasnif boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari hamda kommunikativ faoliyat ehtiyojlari asosida ishlab chiqilganligi bilan tavsiflangan. Multimedia texnologiyalarining matn, tasvir, audio, video va animatsiyani birlashtiruvchi xususiyati o‘quvchilarning turli sezgi organlariga bir vaqtda ta’sir ko‘rsatishi hamda kommunikativ nutqni rivojlantirishda samarali didaktik vosita bo‘lib xizmat qilishi asoslab berilgan. Shu asosda interfaol multimedia materiallarining o‘quvchilar diqqatini uzoq muddat saqlab turishi, vizual, audial va kinestetik qabul qilish xususiyatlarini bir vaqtda faollashtirishi ilmiy jihatdan yoritilgan. Ayniqsa, interfaol hikoyalar, dialoglar va multimedia topshiriqlari o‘quvchilarning nutq namunalarini tinglash, takrorlash, tahlil qilish hamda mustaqil qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishi ko‘rsatib berilgan.

Audiovizual resurslarning ta’limiy videolar, audio kitoblar va interfaol taqdimotlar ko‘rinishidagi turlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining lug‘at boyligini oshirish, to‘g‘ri talaffuz va intonatsiyani shakllantirish hamda og‘zaki nutq madaniyatini rivojlantirishdagi pedagogik samaradorligi bilan tavsiflangan. Tadqiqot natijalari video va audio materiallarning uyg‘un qo‘llanilishi o‘quvchilarning axborotni qabul qilish, tushunish va uzoq muddat eslab qolish ko‘rsatkichlarini oshirishini ko‘rsatgan. Shu bilan birga, audiovizual vositalar orqali o‘quvchilarning tinglab tushunish, fikrni qayta ifodalash va muloqotga kirishish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari kengayishi asoslab berilgan.

Raqamli o‘quv platformalarining kommunikativ nutqni rivojlantirishdagi imkoniyatlari ham alohida tahlil qilinib, ularning individual yondashuvni ta’minlash, adaptiv o‘rganish tizimini yaratish hamda gamifikatsiya elementlari orqali o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasini oshirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, real vaqt rejimida baholash imkoniyatlari orqali o‘quvchilarning nutqiy rivojlanishini monitoring qilish va individual ta’lim trayektoriyasini belgilash imkoniyatlari yoritilgan. Bu esa o‘quvchilarning bilim darajasi, qiziqishi va kommunikativ ehtiyojidan kelib chiqib differensial yondashuvni tashkil etishga xizmat qilishi bilan izohlangan.

Mobil ilova va dasturlar bugungi kunda bolalar hayotining ajralmas qismiga aylanib borayotganligi sababli ulardan ta’lim jarayonida foydalanish kommunikativ nutqni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida baholangan. Mobil texnologiyalarning asosiy afzalligi ularning makon va vaqt bilan cheklanmagan holda foydalanish imkoniyatini yaratishidadir. Bu esa ta’lim jarayonini faqat dars bilan chegaralab qo‘ymasdan, uni o‘quvchilarning kundalik faoliyati bilan integratsiyalash imkonini beradi. Shu munosabat bilan mobil ilova va dasturlar kommunikativ o‘yinlar, so‘z o‘rganishga yo‘naltirilgan ilovalar, hikoya yaratish dasturlari hamda ovozli kitobxon ilovalari kabi asosiy turlarga ajratilgan. Kommunikativ o‘yinlar o‘quvchilarning nutqiy faolligini o‘yin texnologiyalari orqali rivojlantirishga xizmat qilsa, so‘z o‘rganish ilovalari interfaol topshiriqlar vositasida lug‘at boyligini oshirish imkonini beradi. Hikoya yaratish dasturlari o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi va


mustaqil matn tuzish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, ovozli kitobxon ilovalari esa to‘g‘ri talaffuz, ravon o‘qish va tinglab tushunish kompetensiyalarini shakllantirishda samarali vosita sifatida tavsiflangan.

Tadqiqot natijalari mobil ilovalardan foydalanish o‘quvchilarda texnologik savodxonlik bilan bir qatorda kommunikativ ko‘nikmalarni ham rivojlantirishini ko‘rsatgan. Shu bilan birga, mobil vositalardan foydalanishda me’yoriylik tamoyiliga amal qilish zarurligi alohida ta’kidlangan. Chunki media vositalardan haddan tashqari foydalanish bolalarning sog‘lig‘i, emotsional holati va ijtimoiy faolligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi ilmiy jihatdan asoslangan.

Mediatexnologik materiallarni tasniflash jarayonida pedagogik maqsadlarning ustuvorligi muhim omil sifatida qaralgan. Har bir media vosita ma’lum didaktik vazifani bajarishga yo‘naltirilishi kerakligi asoslab berilgan. Jumladan, interfaol multimedia materiallari o‘quvchilarni faol o‘quv jarayoniga jalb qilish va murakkab tushunchalarni soddalashtirishda, audiovizual resurslar lug‘at boyligini oshirish hamda talaffuz ko‘nikmalarini rivojlantirishda, raqamli o‘quv platformalari individual ta’lim ehtiyojlarini qondirishda, mobil ilovalar esa kommunikativ faoliyatni kundalik hayot bilan bog‘lashda samarali vosita sifatida tavsiflangan. Shu bilan birga, kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan media vositalarni tanlash va qo‘llashda o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish zarurligi ko‘rsatib berilgan. Ayrim o‘quvchilarning audial, boshqalarining esa vizual yoki kinestetik usullar orqali samaraliroq o‘rganishi asoslanib, mediatexnologik materiallarni adaptiv texnologiyalar asosida har bir o‘quvchining ehtiyoji va qobiliyatiga moslashtirish zarurligi yoritilgan. Mazkur yondashuv kommunikativ nutqni rivojlantirish jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning nutqiy faolligini kuchaytirish hamda ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan asosda tashkil etishda muhim metodik ahamiyat kasb etishi bilan tavsiflangan.

